

This is not registered version of TotalDocConverter

Ertayo maktabga kelgan direktorimiz Qozivoy aka korronda uyoqdan-buyoqqa bozchining mokisidek sabrsizlanib qatnab turgan ekan. Meni korib birdan yuzi yorishdi:

- Vaqtida kelding-da. Ertojevni tuman markaziga muhim ish bilan yuborgandim. Uning darsini bugun sen otkazib tur, uka!

- Axir algebraga tishim otmaydiku, - dedim ikkilanib.

Shaharda qaynoq talabalik davrimga nuqta qoyib, qishlogimizdagi maktabga kimyo oqituvchisi bolib kelganimga endigina bir oy toldi. Yangiman. Shunday ekan ortiqcha nozlagsam odobdan bolmas Kamiga Qozivoy aka yelkamga qoqib:

- Hali yoshsan, meni aytganimni qilsang karyerangda asp yurish qilgan bolasan! -deb qoydi.

Qozivoy akaning jonu dili shaxmat edi. Buni ishga kelgan kunimoq hamkasblarimdan eshitgandim. U har gapida shaxmatga xos iboralarni qoshib gapirishni xush korardi. Yoshi keksaroq oqituvchilarning aytishlaricha, hatto shu shaxmatni deb Qozivoy akani direktorlikdan boshatishlariga bir bahya qolgan ekan. Qaysidir yili tuman xalq talimi bolimidan tekshiruvchilar keladigan bolibdi.

Bundan xabardor bolsa-da Qozivoy aka tushmagur qorovul chol bilan maktab bogida kok choyni xorillatgancha parvoyi palak shaxmat oynab otiraveribdi. Tekshiruvchilar direktorni boggacha izlab kelishib Yaxshiyamki, Qozivoy akaning baxtiga tekshiruvchilarning kattasi ham shaxmat v h jinnisi chiqib qolibdi. Ikkalovi ikki shisha pivoni kuchi bilan uch-tort partiya shaxmat oynab, kunni kech qilishibdi. Xullas, tekshiruvchilar kattasi yaxshi kayfiyatda ketibdi. Chunki Qozivoy akaning unga ataylab yutqazib berganligini qayoqdanam bilsin?!

Qongriq chalinishi bilan Ertojevning orniga sinfxonaga kirib keldim. Maktabdagi eng intizomsiz sinf deb atashganicha bor ekan. Birovi telefonda gaplashgan,birovi boshqasining sochiga saqich yopishtirib qoygan, yana qaysi biri doskaga rasm solgan.

Madorim qurib darsni tugatdim. Bir soat ichida shunaqa charchadimki Boshqa bu sinfga qadam bosmaganim bolsin. Boshim guvillab koridorda ketarkanman, direktorning ochiq eshigi oldida Qozivoy aka va Ertojev domlaning ovozlari qulogimga chalingandek boldi. Asta moraladim: ikkovlon B«kisht degancha dona surib, shaxmat oynab otirishibdi. B«E,qoyilman Boplab tuzlashibdi meni, oyladim ichimda. Qozivoy aka kozlari shaxmat taxtasida bolsa ham meni sezibdi, kozlarini menga tikmasdan:

- Kiraver,uka. Tugatdingmi darsni? - dedi.

- Ha.Amalladik

- Barakalla! Hayron bolma. Otgan hafta shu akangga yutqazgandim. Revansh olay degandimda. Ertaga Sodiqovda ham muhim ish chiqib qolishi mumkin. Grossmeysterda u. Menam bosh kelmayman ammo. Uning ham birinchi soatda darsi bor. Ertaroq kelgin, xopmi?